



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 4 (6)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

4

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Юлдашев Ш.Г. Конвергенция и поляризация развитых и развивающихся стран в эпоху развития искусственного интеллекта.....	8
Mamatov B.S. Foreign investment is an important factor of economic growth.....	15
Raximova K.N. Raqamli iqtisodiyot sharoitida telekommunikatsiya kompaniyasining rivojlanish tendensiyasi.....	22
Karimov Sh.X. Turizmni barqaror rivojlantirishda hududiy boshqaruv omillarining ahamiyati.....	26
Raximov D.Sh. To‘qimachilik sanoatida diversifikatsiya darajasi va iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili.....	30
Rashidova K. Asalarichilik mahsulotlari bozorida marketing faoliyati samaradorligini oshirish.....	32
Хакимов Д.Р. Процессы, возможности и ограничения экономической интеграции между Республикой Узбекистан и Китайской Народной Республикой.....	37
Olimjanova Sh.O., Eshonqulov I.N. O‘zbekistonda agrar munosabatlarni takomillashtirishda resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari.....	42
Valikulov Sh.Z. O‘zbekistonda neft-gaz sanoatiga investitsiyalarni jalb qilishning institutsional muammolari va yechimlari.....	48
Ganieva L.S. Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari.....	52
Axrorova N.U. Turizm xizmatlaridan tajriba iqtisodiyotiga o‘tish: evolyutsion tahlil.....	56
Kamilova A.N. Sanoat ishlab chiqarish korxonasida mehnatni normalashtirish menejmentini tashkil etish va takomillashtirish yo‘llari.....	61
Umurzakova Z.S. Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari.....	66
Abdiyeva D.K. Priority directions for improving the national logistics policy in Uzbekistan.....	69
Xalimova N.J. Kreativ turizm: nazariy asoslar va ta’riflar qiyosiy tahlili.....	74
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda qadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	78
Zaxirova G., Shavkatova N.O’. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari.....	82
Maxmudov H., Muxtarova G., Maxmudov H. Ekologik muommolar va ularning mamlakat iqtisodiyotga ta’siri.....	86
Umurzakova M.N., Gulahmadov Sh.A. Davlat ichki va tashqi qarzlarning ijobiy va salbiy jihatlar tahlili.....	89
Xasanov I.M. O‘zbekistonda mulkchilik munosabatlarining transformatsiyasi: tadbirkorlikni rivojlantirish omili sifatida.....	94
Abdullayev M.G’. Personalni boshqarish tizimining ilmiy-nazariy asoslari va uning korxona samaradorligiga ta’siri.....	101
Адилов Б.Б., Абдуллаева М.К. Ўзбекистонда саноат корхоналарини ривожлантириш, тенденциялари.....	105
Абдуғаниев Ё.Ж. Яшил иқтисодиёт - барқарор ривожланиш мақсадларининг янги парадигмаси сифатида.....	112
Xusanboyeva T.M. Talabalarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirishda to‘garaklarning o‘rni va ahamiyati.....	116
Xashimova S.N. O‘zbekiston milliy yashil taksonomiyasi mohiyati va ahamiyati.....	120
Mitillayev I.T. Tijorat banklarida kredit risklarini baholashda zamonaviy scoring modellari va ularning samaradorligini oshirish yo‘llari.....	124
Бобоқулова М.Ғ. Инвестиция муҳити ва Ўзбекистондаги инвестиция жараёнларининг динамикаси.....	127
Bekberganova M.R. “O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalari tushumlarining ekonometrik tahlili”.....	134
Рахимова М.Ш. Модернизация системы социальной защиты.....	138
Oqboyev A.R. Tadbirkorlik subyektlari eksport salohiyatini xalqaro standartlar asosida oshirish yo‘llari....	142
Djumanova R.F. Aholi turmush sifatini baholashning metodologik yondoshuvlari.....	147
Mamatov B.S., Umurzakova M.N. Davlat tibbiy sug‘urta tizimida bepul xizmatlar, reimbursasiya va foydalanish shartlari.....	154
Ешимбетов У.Х. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этиш ва иқтисослаштиришнинг илмий асослари.....	158
Xodjaeva F.K. Sanoat ishlab chiqarishini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish....	167
Yusupova M. Hududlarda ayollar va yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	171
Abduxalilov B.Z. O‘zbekistonda IT provayderlar xizmatlari raqobatbardoshligini oshirish: huquqiy va institutsional asoslar.....	175
Abdisamatov A.A. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	178

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 4-son 2026 yil

Abdusalomov I.J. Korxonalarda chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va uning moliyaviy natijalarga ta'siri.....	182
Amirov L.F., Sokhibjonova S.S. Directions for increasing agricultural product exports in the context of a green economy.....	185
Boltaxo'jayeva I.O'. Ways to improve the enterprise management system based on modern management models.....	191
Dehqonov U.M., Sativaldiyeva G. Korxonalarda bo'nak to'lovlari hisobining moliyaviy hisobotga ta'siri va ularni optimallashtirish bo'yicha tahliliy yondashuvlar.....	195
Isoqova M.A. O'zbekistonda yashil energiyadan foydalangan holda kichik biznesni rivojlantirishning institutsional va moliyaviy mexanizmlari.....	199
Mamadaliyev B., Teshaboyev J. Korxonalarda mehnatga haq to'lash hisobini avtomatlashtirish va audit samaradorligini oshirish yo'llari.....	202
Poziljonov M., Teshaboyev X. Davlat muassasalarida asosiy vositalarning hisobini takomillashtirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.....	206
Rustamova F.A. Qishloq hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlarning roli.....	209
Tursunboyev Q.O. Transport xizmatlari ko'rsatish sohasida kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	213
Umarov T.S. Hududlarda qurilish korxonalarini faoliyatini samarali tashkil etishni ekonometrik modellash va prognozlash.....	216
Xo'jaliyev A.O., Avilov N. Moliyaviy natijalar hisobi va auditda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi.....	220
Xomidov T.T., Arziboyeva R.S. Bank aktivlarining tarkibi va ularni boshqarish omillari.....	223
Xusainov M. Sanoat korxonalarida mahsulot tannaxsini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirishning metodologik asoslari va audit mexanizmlarini rivojlantirish.....	227
Begaliyeva M.A., Egamshukurova N.R. Jahon savdo tizimi va milliy iqtisodiyot uchun uning ahamiyati..	231
Gulimboyev S.I. Korxonalarda moliyaviy resurslar taqsimotining zamonaviy usullari.....	235
Ibodov J.Q. Moliyaviy tizimning xizmatlar sohalari va bo'g'inlari.....	239
Jumabayeva K.B. Xalqaro pensiya tizimi modellari va ularning mintaqaviy tamoyillari.....	243
Khusanova Z.R., Yo'ldasheva Z.U. Global trends in the development of international tourism services....	249
Sadullayev M.D. Sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini boshqarish.....	252
Tilabov N.T. Davlat qarz siyosatini samarali boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	256
Toshtemirov Y.N. O'zbekistonda logistik faoliyatni rivojlantirishning hozirgi darajasi.....	264
Toshtemirova Z.M. Mahalla institutining iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi strategik ahamiyati.....	268
Uralov E.O. Surxondaryo viloyati xududida sanoatni shakllanishi va rivojlanishi.....	273
Xursanova F.Sh. Budjetlararo munosabatlarning iqtisodiy mazmuni.....	278
Yuldasheva G.A. Investitsion qarorlarni kabul qilishda moliyaviy tahlilning ahamiyati va roli	282
Абдуллаева Р. Тadbirkorlikning zamonaviy kuryentlari.....	287
Юлдашев А. Фаргона вилояти маҳаллаларида инвестиция фаоллигини оширишнинг институционал асослари	292
Abdumalikova Z., Razakova B.S. O'zbekiston sug'urta bozorini moliyaviy texnologiyalar (insurtech) asosida rivojlantirish: imkoniyatlar va yo'nalishlar.....	294
Azimov B.F. Milliy innovatsion tizimni boshqarishda tashkiliy-institutsional va moliyaviy-iqtisodiy mexanizmlarning roli.....	300
Begaliyeva M.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tizimida sifat menejmentini samarali joriy etishning ahamiyati.....	304
Dawletmuratov A.M. Xizmatlar bozorini rivojlantirish orqali bandlikni oshirish va daromadlarni ko'paytirish mexanizmlari.....	308
Karimova L.S., Jabborov A.A. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: holati, muammolar va rivojlanish istiqbollari.....	313
Maxmudov F.U. Oliy ta'lim muassasalarida moslashuvchan marketing strategiyalarini ishlab chiqish mexanizmlari.....	319
Navruz-zoda L.B. Kichik biznes subyektlarining kadrlar salohiyati va bilim infratuzilmasiga bo'lgan talablari: Buxoro viloyati misolida.....	323
Nishonboyev D.E., Abdumalikov S.T. Chorvachilik tarmog'ini innovatsion boshqaruv asosida rivojlantirish istiqbollari.....	327

Nurmirezayeva N.R. Valyuta kursi o‘zgarishining eksport-importga ta’siri: O‘zbekiston misolida amaliy baholash.....	331
Rahimov A.M. Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda qayta ishlash sanoatini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini takomillashtirish.....	335
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tajribasi va uni joriy etish.....	339
Ravshanova M.M. Hududiy iqtisodiy salohiyatni baholashda zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish va ularning elektron tijorat tizimidagi o‘rni.....	343
Ro‘ziboyeva M. O‘zbekistonda ishchi kuchi migratsiyasi va iqtisodiy o‘sish darajasining o‘zgarish dinamikasi.....	347
Saidova F.K., O‘rozov Sh. Korporativ ijtimoiy mas’uliyat (CSR) va yashil iqtisodiyot: logistika sektorida boshqaruv strategiyalari.....	350
Sultonov S.N. Hududlarda klasterlarini investitsion - innovatsion rivojlantirish istiqbollari (Qashqadaryo viloyati misolida).....	354
Sultonova D.U. Korxona iqtisodiyotida resurslarni boshqarishning raqamli-integratsiyalashgan modelini takomillashtirish.....	358
To‘raxojayev H.H., Hoshimov P.Z. Islomiy banklarning ishlash tamoyili va islom moliya tizimining O‘zbekiston iqtisodiyotiga tadbiqu.....	362
Tursunova N.U. Bridging the innovation gap: development-focused entrepreneurship support and international intermediaries.....	368
Акрамова Г.А. «Роль женщин-ученых в совершенствовании механизмов коммерциализации ремесленных услуг Узбекистана в условиях цифровой экономики».....	374
Болтаев Ж.А. Трансформация банковского сектора в условиях цифровизации мировой экономики..	379
Жунайдуллаев М.А. Жанубий Кореяда рақамли таълим технологиялари орқали индивидуал спортчиларини тайёрлаш тизимини бошқаришнинг миллий хусусиятлари.....	384
Митрушова М.Л. Интеллектуальный капитал как ключевой фактор инновационного развития предприятия.....	388
Муродов О.У. Барқарор ривожланиш тушунчаси ва унинг иқтисодий, ижтимоий ҳамда экологик мезонлари.....	392
Саидова Г., Ибрагимова К., Қурбонов А. Рақамли трансформация шароитида енгил саноат корхоналари маҳсулотларининг халқаро рақобатбардошлигини ошириш стратегиялари.....	396
Sarkarov S.Z. O‘zbekistonda qurilish sohasining texnologik bisqichlar kesimida rivojlanishi.....	401
Minojiddinova N.M. Aksiyadorlik jamiyati korxonalarida xodimlarni samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari.....	406
Ruzmetova I.Y. Xorazm viloyati iqtisodiyotida kichik biznesning o‘rni.....	410
Qudratov D., Ismoilov A. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarmoqlar rivojidadagi o‘rni.....	414
Qodirov H.D. Soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali davlat byudjeti daromadlarini barqaror oshirish yo‘llari.....	417
Kinjayev K.N. Banklarda kreditlar tasnifini yaxshilash orqali rentabellikni ta’minlash yo‘llari.....	421
Макушина А.Ю. Государственная поддержка экспортного потенциала субъектов малого предпринимательства в Республике Узбекистан.....	424
Rejapov X.X., Oxunjonova K.K. Ixtisoslashtirilgan savdo majmualarini moliyaviy resurslarini shakllantirish va ishlatish yo‘nalishlari – Bek Baraka savdo majmuasi misolida.....	430
Махкамова Н.С. Роль государственно-частных партнерств (ГЧП) в продвижении устойчивого развития	434
Avilov N., Muhammadova G. Korxonalarda materiallar harakatining auditi va iqtisodiy tahlili.....	441
Abdullayeva R.G., Raxmonova I.S. O‘zbekiston qishloq hududlarida bandlikni ta’minlash holati va rivojlanish tendensiyalari.....	444
Yusupova M.B. Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlashning ABC usuli.....	447
Toshpo‘latov M.A. Ta’lim loyihalarida moliyaviy mablag‘lardan samarali foydalanishning xususiyatlari...	452
Hamidova Sh., Ahmadaliyeva H. Kapital qo‘yilmalarning samaradorlik tahlili.....	458
Хамракулов С.М. Собственный капитал в функционировании экономических субъектов Республики Узбекистан.....	461
Zayavitdinova N.M. Raqamli platformalar asosida xizmat ko‘rsatish korxonalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	465
Turg‘unov T.S. O‘zbekistonda aholi turmush darajasini statistik taxlil qilishning ahamiyati.....	469
Ботирова З.Қ. Рақамли иқтисодиёт шароитида даромадларни бошқаришнинг хусусиятлари....	475
Бегимова Н.К. Меҳнат бозорида гендер тафовутларининг келиб чиқиш сабаблари.....	481

Investitsiya loyihalarini baholashda zamonaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (NPV, IRR, PI) va risklarni chuqur tahlil qilish tizimini joriy etish muhimdir. Bundan tashqari, “O‘zbekneftgaz” AJ va boshqa korxonalarda korporativ boshqaruvni rivojlantirish, mustaqil direktorlar rolini kuchaytirish hamda ichki audit tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlash va xorijiy tajribani o‘rganish orqali inson kapitalini rivojlantirish zarur. Mahsulotni chuqur qayta ishlashni kengaytirish esa qo‘shimcha qiymat zanjirini oshirib, eksport daromadlarini ko‘paytiradi.

Investorlar uchun qo‘shimcha soliq va bojxona imtiyozlari, kafolatlar hamda infratuzilma sharoitlarini yaxshilash investitsion jozibadorlikni oshiradi. Ilmiy-texnik hamkorlikni kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish esa konlarni o‘rganish va ishlatish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston neft va gaz sanoati: Transformatsiya yo‘li bilan bozor munosabatlariga o‘tish. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-neft-va-gaz-sanoati-transformatsiya-yoli-bilan-bozor-munosabatlariga-otish>
- 2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.07.2008– yildagi “Xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb etish hamda o‘zlashtirish jarayonini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ – 927 sonli qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.06.2017 yildagi “Neft-gaz tarmog‘ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3107-sonli qarori.
4. Nishanbay Sirajiddinov, Sardorbek Murtozaev. Fdi dynamics in uzbekistan: trends, reforms and institutional perspectives, fdi dynamics in uzbekistan: trends, reforms and institutional perspecti. “International Economic Trends”

UDK:339.543

BOJXONA XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ТАМОЖЕННЫХ УСЛУГ

THEORETICAL FOUNDATIONS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF CUSTOMS SERVICES

Ganieva Laylo Saliyjanovna

Xorazm viloyati bojxona boshqarmasi bosh inspektori

Annotatsiya

Mazkur maqolada bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari tahlil qilinadi. Xizmatlar sifati, tezkorlik, raqamlashtirish va institutsional omillarning roli yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar asosida bojxona tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari hamda xalqaro tajriba asosida samaradorlikni oshirish mexanizmlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: bojxona xizmatlari, samaradorlik, raqamlashtirish, logistika, tashqi savdo, bojxona nazorati, xizmat sifati, institutsional islohotlar, xalqaro tajriba, bojxona boshqaruv

В данной статье анализируются теоретические основы повышения эффективности таможенных услуг. Освещается роль качества услуг, оперативности, цифровизации и институциональных факторов. Также на основе современных подходов обосновываются направления совершенствования таможенной системы и механизмы повышения

эффективности с учетом международного опыта, а также разрабатываются практические рекомендации.

Ключевые слова: таможенные услуги, эффективность, цифровизация, логистика, внешняя торговля, таможенный контроль, качество услуг, институциональные реформы, международный опыт, таможенное управление

This article analyzes the theoretical foundations for improving the efficiency of customs services. It highlights the role of service quality, operational speed, digitalization, and institutional factors. Based on modern approaches, the study substantiates directions for improving the customs system and mechanisms for enhancing efficiency using international experience, and also develops practical recommendations.

Keywords: customs services, efficiency, digitalization, logistics, foreign trade, customs control, service quality, institutional reforms, international experience, customs management

Globallashuv sharoitida xalqaro savdo hajmining ortishi bojxona xizmatlari tizimiga qo‘yilayotgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Bojxona organlari nafaqat fiskal vazifalarni bajaruvchi institut sifatida, balki tashqi savdoni tartibga soluvchi, logistika jarayonlarini tezlashtiruvchi va iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlovchi muhim tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda [1]. Shu bois bojxona xizmatlari samaradorligini oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylangan.

Bojxona xizmatlari samaradorligi ko‘p jihatdan xizmat ko‘rsatish sifati, rasmiylashtirish jarayonlarining tezkorligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi hamda institutsional boshqaruv mexanizmlarining mukammalligiga bog‘liq [2]. Ayniqsa, so‘nggi yillarda “yagona darcha” tizimi, elektron deklaratsiya va risklarni boshqarish tizimlarining joriy etilishi bojxona jarayonlarini sezilarli darajada optimallashtirishga xizmat qilmoqda [3].

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan standartlar, jumladan, Jahon bojxona tashkiloti tavsiyalari bojxona xizmatlarini modernizatsiya qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [4]. Bu esa milliy bojxona tizimlarini xalqaro talablarga moslashtirish orqali tashqi savdo operatsiyalarining shaffofligi va samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Mazkur maqolada bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari tahlil qilinib, ushbu sohadagi zamonaviy yondashuvlar va ilmiy qarashlar tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, amaliy jihatdan muhim bo‘lgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirish nazariy jihatdan iqtisodiy samaradorlik, institutsional yondashuv va xizmatlar sifati konsepsiyalariga asoslanadi. Ushbu yondashuvlar bojxona tizimining nafaqat fiskal vazifalarni bajarishi, balki tashqi savdoni rag‘batlantiruvchi muhim institut sifatida faoliyat yuritishini ta‘minlaydi.

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan bojxona xizmatlari samaradorligi resurslardan oqilona foydalanish, vaqt va xarajatlarni minimallashtirish hamda maksimal natijaga erishish bilan bog‘liq. Bu yerda Pareto samaradorligi tamoyili muhim bo‘lib, bojxona jarayonlari shunday tashkil etilishi kerakki, bir tomon foydasi boshqa tomon zarariga bo‘lmasin. Ya‘ni, bojxona nazorati kuchaytirilgan holda ham tadbirkorlik subyektlari uchun ortiqcha to‘siqlar yuzaga kelmasligi lozim.

Institutsional nazariya bojxona xizmatlarini davlat boshqaruvi tizimining bir qismi sifatida ko‘rib, ularning samaradorligini qonunchilik bazasi, boshqaruv sifati va tashkilotlararo hamkorlik darajasi orqali izohlaydi. Bu yondashuvga ko‘ra, samarali bojxona tizimi ochiqlik, shaffoflik va hisobdorlik tamoyillariga asoslanishi kerak. Ayniqsa, korrupsion omillarni kamaytirish va tartib-taomillarni soddalashtirish samaradorlikni oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Xizmatlar nazariyasi doirasida bojxona xizmatlari sifati SERVQUAL modeli orqali baholanadi. Ushbu modelga ko‘ra, xizmat sifati ishonchlilik, tezkorlik, kafolat, empatiya va moddiy komponentlar orqali aniqlanadi. Bojxona xizmatlarida bu ko‘rsatkichlar yuklarni tez va aniq rasmiylashtirish, axborotning ochiqligi hamda mijozlarga qulay sharoit yaratish orqali namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy nazariy yondashuvlarda raqamlashtirish alohida o‘rin tutadi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi asosida bojxona xizmatlarini avtomatlashtirish, elektron deklaratsiya, “yagona darcha” tizimi va risklarni boshqarish mexanizmlari samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Bu esa inson omilini kamaytirish orqali xatoliklar va korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Shuningdek, logistika nazariyasi bojxona xizmatlari samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tovarlarining chegaradan tez va uzluksiz o‘tishi transport-logistika zanjirining samaradorligini oshiradi. Shu bois bojxona tizimi logistika infratuzilmasi bilan integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi zarur.

Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning nazariy asoslari kompleks xarakterga ega bo‘lib, iqtisodiy, institutsional, xizmatlar sifati va raqamlashtirish yondashuvlarining uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu nazariy asoslarni amaliyotga samarali joriy etish bojxona tizimini modernizatsiya qilish va tashqi savdo jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishda xizmatlar sifati muhim o‘rin tutadi. Xizmat sifati bojxona organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning ishonchliligi, aniqligi va mijozlarga qulayligi bilan belgilanadi. Yuqori sifatli xizmatlar tadbirkorlar ishonchini oshiradi, tashqi savdo jarayonlarini soddalashtiradi hamda iqtisodiy faollikni rag‘batlantiradi. Ayniqsa, axborotlarning ochiqligi va xizmat ko‘rsatish standartlarining aniq belgilanganligi xizmat sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Tezkorlik omili bojxona rasmiylashtiruv jarayonlarining vaqt jihatidan samaradorligini anglatadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bojxona jarayonlarining tezligi logistika xarajatlariga bevosita ta’sir qiladi. Rasmiylashtirish jarayonlarining cho‘zilishi yuklarning kechikishiga, bu esa qo‘shimcha xarajatlarga olib keladi. Shu bois tezkorlikni oshirish orqali nafaqat bojxona tizimi samaradorligi, balki butun logistika zanjiri samaradorligi ham oshadi.

Raqamlashtirish bojxona xizmatlari samaradorligini oshirishning eng muhim zamonaviy omillaridan biridir. Elektron deklaratsiya, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, “yagona darcha” platformasi va risklarni boshqarish tizimlari bojxona jarayonlarini optimallashtirishga xizmat qiladi. Raqamlashtirish inson omilini kamaytiradi, xatoliklarni qisqartiradi va korrupsion holatlarning oldini oladi. Natijada xizmatlar sifati va tezkorligi sezilarli darajada oshadi.

Institutsional omillar esa bojxona tizimining samarali ishlashini ta’minlovchi tashkiliy va huquqiy asoslarni o‘z ichiga oladi. Qonunchilik bazasining mukammalligi, boshqaruv tizimining shaffofligi va davlat organlari o‘rtasidagi hamkorlik darajasi bojxona xizmatlari samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Institutsional islohotlar orqali ortiqcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini soddalashtirish mumkin.

1-jadval

Bojxona xizmatlari samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

Omillar	Mazmuni	Samaradorlikka ta’siri	Natijaviy ko‘rsatkichlar
Xizmatlar sifati	Xizmatning ishonchliligi, aniqligi va mijozga yo‘naltirilganligi	Tadbirkorlar ishonchi oshadi, savdo jarayonlari soddalashtiriladi	Mijozlar qoniqish darajasi, shikoyatlar soni kamayishi
Tezkorlik	Bojxona rasmiylashtiruv vaqtining qisqaligi	Logistika xarajatlari kamayadi, yuk aylanishi tezlashadi	Rasmiylashtirish vaqti, yuk o‘tish tezligi
Raqamlashtirish	Elektron tizimlar va avtomatlashtirish darajasi	Jarayonlar optimallashtiriladi, inson omili kamayadi	Elektron xizmatlar ulushi, vaqt tejallishi
Institutsional omillar	Qonunchilik, boshqaruv va tashkilotlararo hamkorlik	Tizim barqarorligi va shaffofligi oshadi	Korrupsiya darajasi pasayishi, samaradorlik indeksi

Yuqorida keltirilgan jadval bojxona xizmatlari samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni tizimli ravishda ifodalaydi va ularning o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, xizmatlar sifati bojxona tizimining yakuniy natijadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Yuqori sifatli xizmatlar tadbirkorlar ishonchini oshiradi va tashqi savdo jarayonlarining barqarorligini ta’minlaydi.

Tezkorlik omili esa bevosita iqtisodiy samaradorlikka ta’sir qiladi. Rasmiylashtirish vaqtining qisqarishi logistika xarajatlarini kamaytiradi va yuk aylanish tezligini oshiradi. Bu esa mamlakatning tranzit salohiyatini kuchaytiradi. Jadvalda ko‘rsatilganidek, tezkorlik ko‘rsatkichlari bilan iqtisodiy natijalar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik mavjud.

Raqamlashtirish omili boshqa barcha omillarga katalizator sifatida ta’sir ko‘rsatadi. Elektron tizimlarning joriy etilishi xizmatlar sifatini oshiradi, tezkorlikni ta’minlaydi va inson omilini kamaytiradi. Natijada jarayonlar shaffoflashadi va samaradorlik ortadi.

Institutsional omillar esa ushbu tizimning barqaror ishlashini ta’minlovchi asosiy poydevor hisoblanadi. Qonunchilik va boshqaruv tizimi qanchalik mukammal bo‘lsa, boshqa omillar samaradorligi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. Umuman olganda, jadval bojxona xizmatlari samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab qilishini aniq ko‘rsatadi.

Bojxona tizimini takomillashtirish zamonaviy iqtisodiy sharoitda raqamli transformatsiya, integratsiyalashgan boshqaruv va riskka asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bojxona xizmatlari samaradorligini oshirish uchun eng avvalo jarayonlarni avtomatlashtirish va ma’lumotlar almashuvini tezlashtirish zarur. Shu nuqtai nazardan, elektron deklaratsiya, “yagona darcha” tizimi va sun’iy intellektga asoslangan risklarni boshqarish tizimlari muhim mexanizmlar sifatida e’tirof etiladi.

Xalqaro tajriba, xususan, rivojlangan davlatlar amaliyoti bojxona tizimida “risk management” modelining keng qo‘llanilayotganini ko‘rsatadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, barcha yuklar to‘liq tekshiruvdan o‘tkazilmaydi, balki xavf darajasiga qarab selektiv nazorat amalga oshiriladi. Bu esa rasmiylashtirish vaqtini qisqartirib, bojxona organlarining resurslarini samarali taqsimlash imkonini beradi. Natijada tezkorlik va samaradorlik bir vaqtda ta’minlanadi.

Shuningdek, “Authorized Economic Operator” (AEO) instituti ham samaradorlikni oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Ushbu tizim orqali ishonchli tadbirkorlik subyektlariga soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillari qo‘llaniladi. Bu esa halol biznesni rag‘batlantirib, bojxona organlari bilan xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Yana bir muhim yo‘nalish — bojxona va boshqa davlat organlari o‘rtasida integratsiyalashgan axborot tizimlarini yaratishdir. Bu orqali hujjat aylanishi soddalashtiriladi, takroriy tekshiruvlar kamayadi va vaqt yo‘qotishlarning oldi olinadi. Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon bojxona tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan “Revised Kyoto Convention” tamoyillari bojxona tizimini soddalashtirish va uyg‘unlashtirishda muhim ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bojxona tizimini takomillashtirishning zamonaviy yo‘nalishlari raqamlashtirish, riskka asoslangan boshqaruv, institutsional integratsiya va biznes bilan hamkorlikni kuchaytirishga asoslanadi. Ushbu mexanizmlarni izchil joriy etish orqali bojxona xizmatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bojxona xizmatlari samaradorligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi. Xizmatlar sifati, tezkorlik, raqamlashtirish va institutsional omillar o‘zaro uyg‘un holda rivojlantirilgandagina yuqori natijaga erishish mumkin. Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, xususan elektron deklaratsiya va risklarni boshqarish tizimlari samaradorlikni sezilarli oshiradi.

Amaliy tavsiyalar sifatida bojxona jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish, “yagona darcha” tizimini kengaytirish, xodimlar malakasini oshirish va ortiqcha byurokratik tartiblarni qisqartirish zarur. Shuningdek, xalqaro standartlarga moslashuvni kuchaytirish hamda biznes subyektlari bilan hamkorlikni rivojlantirish orqali bojxona tizimi samaradorligini barqaror oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Widdowson, D. (2017). Border Management and Customs Modernization. World Customs Journal.
2. Grainger, A. (2016). Trade Facilitation and Customs Modernization: A Practical Guide. World Bank.
3. World Bank (2020). Doing Business 2020: Trading Across Borders. Washington, DC.
4. World Customs Organization (2018). Revised Kyoto Convention Guidelines. Brussels.

UDK:338.48

**TURIZM XIZMATLARIDAN TAJRIBA IQTISODIYOTIGA O‘TISH: EVOLYUTSION
TAHLIL**

**ПЕРЕХОД ОТ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ К ЭКОНОМИКЕ ВПЕЧАТЛЕНИЙ:
ЭВОЛЮЦИОННЫЙ АНАЛИЗ**

**TRANSITION FROM TOURISM SERVICES TO EXPERIENCE ECONOMY: AN
EVOLUTIONARY ANALYSIS**

Axrorova Nilufar Uktamovna
O‘qituvchi, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada turizm sohasidagi xizmat ko‘rsatish modellarining tajriba iqtisodiyotiga o‘zgarishi evolyutsion nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiy-evolyutsion tahlil, davrlashtirish va tendensiya tahlili metodlari qo‘llanilgan. Natijalar turizmda tajriba iqtisodiyotiga o‘tishning beshta asosiy evolyutsion bosqichi aniqlanganligini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari turizm siyosatini strategik rejalashtirish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: tajriba iqtisodiyoti, turizm xizmatlari, evolyutsion tahlil, iqtisodiy qiymat bosqichlari, Turizm 4.0, hamkorlikda yaratish.

В данной статье анализируется трансформация сервисных моделей в туристическом секторе в экономику впечатлений с эволюционной точки зрения. В исследовании используются методы историко-эволюционного анализа, периодизации и анализа тенденций. Результаты показывают, что выделены пять основных эволюционных этапов перехода к экономике впечатлений в туризме. Результаты исследования служат научной основой для стратегического планирования туристической политики.

Ключевые слова: экономика впечатлений, туристические услуги, эволюционный анализ, этапы экономической ценности, Туризм 4.0, совместное создание ценности.

This article analyzes the transformation of service models in the tourism sector to an experience economy from an evolutionary perspective. The research uses historical-evolutionary analysis, periodization, and trend analysis methods. The results show that five main evolutionary stages of the transition to an experience economy in tourism have been identified. The results of the study serve as a scientific basis for strategic planning of tourism policy.

Keywords: experience economy, tourism services, evolutionary analysis, stages of economic value, Tourism 4.0, co-creation.

XXI asr turizm sanoati uchun tubdan yangi davrni boshlab berdi. An‘anaviy turizm xizmatlari endi iste‘molchilarning o‘sib borayotgan talablarini to‘la qondira olmayapti. Zamonaviy sayyohlar nafaqat sifatli xizmat, balki yodda qoladigan, emotsional jihatdan ta‘sirli va shaxsiy ahamiyatga ega